

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MULTIMEDIA VOSITALARINING SAMARADORLIGI

**Navruzova Sevinch Bahodir qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

E-mail: navruzaasevinch@gmail.com

Tel: +998979444600

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17346792>

**Annotasiya:** Boshlang'ich ta'lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Multimedia vositalari o'quvchilarning mavzuga qiziqishini kuchaytirib, ularni faol fikrlash va ijodiy izlanishga undaydi. Mazkur ishda multimedia vositalarining afzalliklari, texnik imkoniyatlari hamda zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga ta'siri yoritilgan. Tadqiqot natijalari multimedia orqali o'quvchilarning bilish jarayoni tezlashishi, mantiqiy tafakkuri va amaliy ko'nikmalari rivojlanishini ko'rsatmoqda. Shuningdek, multimedia vositalaridan samarali foydalanish boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda muhim metodik yo'nalish sifatida e'tirof etiladi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, multimedia vositalari, axborot texnologiyalari, samaradorlik, innovatsiya.

**Аннотация:** Использование мультимедийных средств в процессе начального образования является одним из важных факторов повышения эффективности учебных занятий. Мультимедиа усиливает интерес учащихся к теме, побуждает их к активному мышлению и творческому поиску. В статье рассматриваются преимущества и технические возможности мультимедиа, а также влияние современных информационных технологий на образовательный процесс. Результаты исследования показывают, что мультимедиа способствует ускорению познавательной деятельности учащихся, развитию их логического мышления и практических навыков. Кроме того, эффективное применение мультимедийных средств признается важным методическим направлением в повышении качества начального образования.

**Ключевые слова:** начальное образование, мультимедийные средства, информационные технологии, эффективность, инновация.

**Abstract:** The use of multimedia tools in primary education is one of the key factors in enhancing the effectiveness of the learning process. Multimedia increases students' interest in the subject, stimulates active thinking, and encourages creativity. The paper discusses the advantages and technical capabilities of multimedia, as well as the impact of modern information technologies on the educational process. The findings show that multimedia accelerates students' cognitive activity, develops their logical thinking and practical skills. Moreover, the effective use of multimedia tools is recognized as an important methodological direction in improving the quality of primary education.

**Keywords:** primary education, multimedia tools, information technologies, effectiveness, innovation.

O'zbekistonda ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar muntazam amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar bu borada

muhim dasturilamal hisoblanadi. Ayniqsa, ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur strategiyada davlat maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy texnika vositalari bilan jihozlash, tarbiyalanuvchilarda boshlang'ich kompyuter savodxonligini shakllantirish kabi maqsadlar belgilangan. Shuningdek, yangi darsliklar, mashq daftarlari, metodik qo'llanmalar va mobil ilovalarni yaratish vazifalari ham ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan muhim yo'nalish sifatida ko'rsatib o'tilgan. Multimediali ta'lim muhiti o'rganishni osonlashtiradi va oshiradi. Kompyuter muhitida multimedia texnologiyalari bilan boyitilgan real yoki virtual tasvirlar, matnlar, tovushlar, grafiklar va rasmlar malakali ta'lim dasturlarini tayyorlashga yordam beradi. Grafika, video, animatsiya va ovoz kabi turli xil vositalar birgalikda taqdim etilganda o'rganish muhitida farqlash orqali o'rganishni osonlashtiradi va oshirishi mumkin deb hisoblanadi.

### **Asosiy qism**

**Matn:** Matn multimedaning eng muhim qismlaridan biridir. Multimedia matnining dizayni va mazmuni gazeta va kitob matni kabi boshqa matn turlaridan farq qiladi.

**Grafika:** Rasmlar, fotosuratlar, tasvirlar va boshqa san'at asarlari grafik deb ataladi. Kompyuter grafikasi kompyuter yordamida rasmlarni yaratish, tasvirlash, manipulyatsiya qilish va ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Grafika multimedaning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir, chunki u orqali biz ma'lumotni rasm ko'rinishida tasvirlashimiz mumkin. Grafikning 2 turi mavjud: chiziqli chizma va tasvir.

**Animatsiya:** Animatsiya multimedaning eng dinamik shakllaridan biridir. Animatsiya chizmalar, obektlar, odamlar va h.k.larning harakatsiz tasvirlarini yozib olish orqali yaratiladi.

**Audio:** audio- bu nutq, musiqa va boshqa turdagi tovushlar. Ovoz elementi oddiy multimedia muhitini yaxshilash uchun ishlatiladi.

**Video:** Video yozuv bilan tasvirlar ketma-ketligini ko'rsatadi. Multimedia texnologiyalari o'quv jarayonini faollashtirib, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, izlanishga va ijodiy yondashishga yo'naltiradi. Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilari mavzularni ko'rgazmali vositalar, animatsiya, videoroliklar va interaktiv mashg'ulotlar orqali tezroq anglab yetadi. Bu esa o'quvchilar tafakkurining rivojlanishiga, bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim platformalari (Kahoot, Quizlet va boshqalar) yordamida darslarni tashkil etish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol muloqotga chorlaydi. Masofaviy ta'lim sharoitida ham multimedia vositalari o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi samarali hamkorlikni ta'minlaydi. Multimedia texnologiyalari asosida tashkil etilgan darslar an'anaviy o'qitish usullaridan farqli o'laroq, o'quvchilarni faol tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Natijada, o'quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o'z fikrini asoslab bera oladi, ijodkorlik ko'nikmalari shakllanadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda asosiy vazifalardan biri — o'quvchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonidagi faoliyatini baholash va uni yanada takomillashtirishdir. Shu nuqtai nazardan, multimedia elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va shaxsiy xususiyatlariga moslashtirish tamoyiliga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qituvchi bilan teng darajada ishtirok etishi, faol muloqotda bo'lishi va o'z fikrini erkin bayon eta olishi sifatli ta'limni ta'minlashning muhim shartlaridan biridir. Shu bois, elektron ta'lim vositalarida interaktiv topshiriqlar,



animatsiyalar, grafik va videomateriallar, shuningdek, o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga oluvchi mashg'ulotlardan foydalanish samarali natijalarni beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratiladigan bunday multimedia resurslar o'quv jarayonining sifatini oshiradi, bilimlarni mustahkamlaydi va o'quvchilarning tafakkurini rivojlantiradi. Natijada, ta'lim samaradorligi ortadi hamda elektron ta'lim vositalarining amaliy ahamiyati kengayadi. Boshlang'ich ta'limda multimedia texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish, o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish hamda darslarning qiziqarli o'tishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy o'quv jarayonida an'anaviy dars shakllaridan tashqari interaktiv mashg'ulotlar, multimediaga asoslangan taqdimotlar, video va animatsiyalardan foydalanish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratiladigan elektron resurslar ularning yosh xususiyatlari, dunyoqarashi va idrok darajasiga moslashtirilsa, bilim olish jarayonining samaradorligi yanada ortadi. Multimediali vositalar yordamida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar faolligi yuqori bo'lib, ular o'yin elementlari, musobaqaviy topshiriqlar va virtual mashqlar orqali mavzuni tezroq va osonroq o'zlashtira oladilar. Shuningdek, multimedia texnologiyalarining qo'llanilishi o'qituvchiga ham darsni vizual, audio va interaktiv tarzda yoritish imkoniyatini beradi, bu esa ta'lim jarayonini bir yo'la qiziqarli va samarali qiladi. Bunday darslar nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning estetik didini, ijodiy qobiliyatini va muloqot madaniyatini ham shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Umuman olganda, multimedia texnologiyalari ta'lim jarayonini optimallashtirish, o'quvchining shaxsiy faol ishtirokini ta'minlash, bilimlarni tezkor baholash va mustahkamlash imkoniyatini kengaytiradi. Shu bois, boshlang'ich sinflarda multimedia texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonining sifatini oshirish, ta'limni samarali va innovatsion yondashuv asosida tashkil etishda eng dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonida multimedia vositalarini qo'llash pedagogik va psixologik nuqtai nazardan juda katta ahamiyatga ega. Unda beriladigan material chuqurroq o'zlashtiriladi, vaqtni tejash imkoniyatiga erishiladi, olingan ma'lumot kishi xotirasida uzoq vaqt saqlanadi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning passiv tiglovchi sifatida ishtirok etishi qisqarib, izlanuvchanlik va bilish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan multimedia dasturlari tatbiq etiladi, ta'lim jarayoniga badiiylilik kiritiladi. Boshqacha qilib aytganda, multimedia ta'limning emotsional-estetik ta'sirlanish, maqsadga intilish, tadqiqotchilik kabi motivlarni faollashtiradi. Ma'lumki, ta'lim oluvchi birinchi marta eshitgan mavzusining faqat to'rttdan bir qismini, ko'rgan materialining esa uchdan bir qisminigina eslab qoladi; ham ko'rib, ham eshitsu axborotning 50% ni yodda saqlaydi. Interaktiv multimedia texnologiyalarida foydalanganda esa bu ko'rsatkich 75% tashkil etadi. Respublikamizda "Multimediali umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi" elektron ta'lim materiallarini yozish, tahrirlash, ularga ishlov berish va davlat ta'lim standartlariga muvofiq turli fanlardan videoroliklar ishlab chiqilmoqdaki bu mahsulotlardan o'quv jarayonlarini tashkil etishda samarali qo'llanib kelinmoqda. Bu esa boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini yanada samarali va mazmunli hamda qiziqarli bo'lishini ta'minlamoqda. Multimedia vositalari yordamida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish jarayoni zamonaviy, ko'ptarmoqli, predmetga yo'naltirilgan multimediali o'quv vositalarini ishlab chiqishni va foydalanishni talab etadi. Ular tarkibiga keng ma'lumotlar bazasi, ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilimlar bazasi, sun'iy intellekt tizimlari, ekspert-o'rgatuvchi



tizimlar, o'rganilayotgan jarayon va hodisalarning matematik modelini yaratish imkoniyati bo'lgan laboratoriya amaliyotlari kiradi. Darsliklardan foydalanilgandagi singari, multimedia vositalarini qo'llashda ham ta'lim strategiyasi ta'lim jarayonida o'qituvchi nafaqat axborotlarni taqdim etish, balki ta'lim oluvchilarga ko'maklashish, qo'llab-quvvatlash va jarayonni boshqarib borish bilan shug'ullangandagina mazmunan boyitilishi mumkin. Odatda, chiroyli tasvirlar yoki animatsiyalar bilan boyitilgan taqdimotlar oddiy ko'rinishdagi matnlarga qaraganda ancha jozibali chiqadi va ular taqdim etilayotgan materiallarni to'ldirgan holda zaruriy emotsional darajani ta'minlab turishi mumkin. Multimediali ta'lim vositalaridan samarali foydalanishni ta'minlash uchun dasturiy ta'minot va texnika vositalari talab darajasida sozlangan bo'lishi zurrur. Bunda multimediali ta'lim materiallarini taqdim etish jarayoni matnlarni tahrirlash va aks ettirishning oddiy vositalariga qaraganda yanada yuqori sifat va keng imkoniyatlar talab etadi. Axborotlarni kompyuter ekranidan o'qish jarayonidagi qiyinchiliklar. Kompyuter ekranidan axborotlarni o'qish qog'ozga chop etilgan axborotlarni o'qishga qaraganda noqulayroq. To'liq o'qib chiqishni talab etadigan katta hajmdagi matnli axborotlarni, shuningdek, gazeta, kitob va jurnallarni qog'ozda chop etilgan variantda o'qish birmuncha qulay. O'tkazilgan kuzatishlar va tajribalar shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf darslarida multimedia texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Jumladan, multimediali elektron darsliklar, interaktiv mashqlar va animatsiyalardan foydalanilgan darslarda o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish ko'rsatkichi an'anaviy darslarga nisbatan yuqoriroq bo'ldi. Natijalar shuni tasdiqladiki, multimedia vositalari o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, shuningdek, ularning dars jarayonida faol ishtirok etishiga sharoit yaratadi. Ayniqsa, o'yin elementlari va musobaqaviy topshiriqlar qo'llangan mashg'ulotlar o'quvchilarda raqobatbardoshlikni, diqqatni jamlashni hamda ijodiy yondashuvni kuchaytirgani kuzatildi. Shuningdek, multimedia texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi o'qituvchilar uchun ham katta qulaylik tug'diradi. Chunki dars materiallarini turli ko'rinishlarda tayyorlash, topshiriqlarni avtomatik baholash va dars jarayonini samarali tashkil etish imkoniyati paydo bo'ladi. Bunday yondashuv o'qituvchining vaqtini tejaydi va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, multimedia texnologiyalari o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Dars jarayonida interaktiv topshiriqlar, testlar va o'yin elementlarining qo'llanilishi ularda raqobatbardoshlikni, diqqatni jamlashni va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Bu esa nafaqat bilim olish jarayonini samarali qiladi, balki o'quvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Samaradorlikning yana bir muhim jihati — vaqtni tejash va o'quv jarayonini optimallashtirishdir. Masalan, o'qituvchi multimedia resurslari yordamida dars materiallarini turli shakllarda taqdim etishi, murakkab mavzularni oddiyroq ko'rinishda tushuntirishi mumkin. Natijada dars jarayoni ko'proq mazmun bilan boyiydi va qisqa vaqt ichida ko'proq ma'lumot yetkaziladi. Shuningdek, multimedia texnologiyalari yordamida o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalari rivojlanadi. Onlayn testlar, interaktiv mashqlar va virtual laboratoriya topshiriqlari orqali ular o'z bilimlarini sinab ko'rish, xatolarini aniqlash va tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon ta'lim samaradorligini oshirishning eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Umuman olganda, boshlang'ich ta'limda multimedia texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishning eng istiqbolli



yo'llaridan biri bo'lib, u o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga, shaxs sifatida shakllanishiga va zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan bilimlarni egallashiga xizmat qiladi

### **Xulosa**

Bugun axborot texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Shunday vaziyatda ta'lim jarayonida multimedia vositalaridan samarali foydalanish nafaqat dars sifatini oshiradi, balki yoshlarni kelajakda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, raqobatbardosh shaxs sifatida yetishtirishga yordam beradi. Yuqoridagi fikrlar va olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'lim jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning bilim olish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Multimediadan foydalanilgan mashg'ulotlar o'quvchilarda fanlarga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi, ularning tafakkurini rivojlantiradi, mustaqil ishlash va izlanish ko'nikmalarini shakllantiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son)
2. G'ulomov C.C , Alimov R.X , va boshqalar . Axborot tizimlari va texnologiyalari. Sharq Toshkent 2000
3. [www.ictcouncil.gov.uz](http://www.ictcouncil.gov.uz)
4. [tami.uz/kitob.php](http://tami.uz/kitob.php)
5. [uz.denemetr.com/docs/769/index-317671-1.html](http://uz.denemetr.com/docs/769/index-317671-1.html)
6. [znano.ru/media/multimediyaning\\_tushunchalari](http://znano.ru/media/multimediyaning_tushunchalari).